

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyihaning mavzusi	Loyiha bajarishda kutilayotgan natija
“O‘zmetkombinat” OAJ, “O‘zavtosanoat” AJ va “Yog‘-moy sanoati” uyushmasi korxonalarining qattiq va suyuq chiqindilari asosida qurilish materiallarini ishlab chiqish texnologiyasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy natijalar: - Uchta ishlab chiqarish korxonasining texnogen turdagi chiqindilari qayta ishlanib arzon va bezarar foydali xom-ashyoga aylantiriladi. - Qayta ishlangan bezarar xom-ashyolarni qo‘shimcha komponentlar bilan sintez qilinib tayyor antikorrozion gruntlovchi material olinadi. - Antikorrozion gruntlovchi materialining GOST me‘yor talablariga mosligi, akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyadan taqqoslangan tahliliy xulosasi olinadi. - Antikorrozion gruntlov materialiga intellektual mulk agentligidan patent va mahsulotning ishlab chiqarish uchun texnik shartlari ishlab chiqiladi. - Sanitar va ekologik normalari ishlab chiqilib mas‘ul tashkilotlardan tasdiqlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari “O‘zmetkombinat” OAJ, “O‘zavtosanoat” AJ yoki “Yog‘-moy sanoati” uyushmasi sanoat darajasida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida xulosa olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalar asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zmetkombinat” OAJ, “O‘zavtosanoat” AJ yoki “Yog‘-moy sanoati” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.